

ABU NASR FAROBIY: TILSHUNOSLIK VA LINGVO- PEDAGOGIKANING BUYUK NAMOYANDASI

Ravshanova Salomat Sobir qizi

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

ravshanovasalomat442@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Ikkinchi muallim" Abu Nasr Farobiyning tilshunoslik rivojiga qo'shgan hissasi va xorijiy tillarni o'rganishdagi pedagogik qarashlari chuqur tahlil qilinadi. Olimning "Al-huruf" va "Mantiqqa kirish" kabi asarlarida til va tafakkur bog'liqligi masalalari zamonaviy filologik tafakkur nuri ostida yangicha talqin qilinadi. Maqola davomida Farobiyning "poliglotlik" mahorati va uning zamonaviy til o'qitish metodikasidagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Abu Nasr Farobiy, filologik meros, "Kitob al-huruf", lingvo-pedagogika, xorijiy tillarni o'qitish, poliglotlik mahorati, til va mantiq, nutq madaniyati.

Abstract:

This article provides an in-depth analysis of the contributions made by Abu Nasr al-Farabi, known as the "Second Teacher," to the development of linguistics and his pedagogical perspectives on foreign language acquisition. In his seminal works, such as "Kitab al-Huruf" (The Book of Letters) and "Introduction to Logic," the intricate relationship between language and thought is reinterpreted through the lens of modern philological reasoning. Furthermore, the article explores Farabi's exceptional "polyglot" skills and the enduring significance of his ideas within contemporary language teaching methodologies.

Keywords: Abu Nasr al-Farabi, philological heritage, "Kitab al-Huruf", linguo-pedagogics, foreign language teaching, polyglot mastery, language and logic, speech culture.

Insoniyat tarixida shunday buyuk insonlar o'tganki, ularning qoldirgan bilimlari oradan necha asrlar o'tsa ham o'z qadrini yo'qotmaydi. Shunday insonlardan biri, butun

dunyoga "Muallimus-soniy" (ya'ni ikkinchi ustoz) nomi bilan tanilgan bobomiz Abu Nasr Farobiydir. Biz ko'pincha Farobiyni faqat faylasuf sifatida tanimiz, lekin u tilshunoslik sohasida ham bugungi kun uchun juda muhim poydevor yaratib ketgan. Nega aynan Farobiy va tilshunoslik haqida gapiryapmiz? Chunki bu zot o'z davrida 70 dan ortiq tillarni mukammal bilgan haqiqiy poliglot bo'lgan (to'g'ri, ba'zi kitoblarda tillar soni biroz farq qilishi mumkin, lekin uning ko'p tilli bo'lgani aniq fakt). Farobiy uchun til shunchaki gaplashish vositasi emas, balki odamning fikrlash doirasini kengaytiradigan asosiy narsadir. Men ushbu maqolada Farobiyning bizga qoldirgan bilimlarini o'zim o'qiyotgan yo'nalish, ya'ni chet tillarini o'qitish va o'rganish usullari orqali tushunishga harakat qildim.

Farobiyning til sohasidagi eng katta xizmati — tilning qanday paydo bo'lganini va fanlar orasida tutgan o'rnini ilmiy tushuntirib berganidir. Olim o'zining "Fanlar tasnifi" asarida til ilmini barcha fanlarning boshi va kaliti deb ataydi (ya'ni, har qanday fanni o'rganishdan oldin, avval o'sha fanning tili va qoidalarini bilish shart deb hisoblaydi). Uning fikricha, til qoidalarini yaxshi bilmasdan turib, mantiqan to'g'ri fikrlash yoki falsafani tushunish qiyin. Shuningdek, uning tillarni bir-biriga solishtirib o'rganish usuli hozirgi kunda biz chet tili darslarida qo'llaydigan usullarga juda o'xshaydi. "Kitob al-huruf" asarida aytilishicha, tillar bir-biridan so'zlarining boyligi bilan farq qilsa ham, lekin mantiqiy qoidalar hamma xalqlar nutqi uchun bir xildir.

Farobiy yoshligidanoq ilm izlab ona yurtini tark etgan va o'sha davrning ilm markazlari bo'lgan Bag'dod, Damashq va Qohira kabi shaharlarda yashagan. U yerda juda ko'p olimlar bilan tanishib, qadimiy yunon olimlarining asarlarini tarjima qilish orqali o'z bilimini oshirgan. Aynan shu mehnatlari va yuksak axloqi sababli unga "Ikkinchi ustoz" maqomi berilgan. Pedagogika nuqtayi nazaridan qaraganda, Farobiy o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotga juda katta e'tibor bergan. U "Fozil odamlar shahri" kitobida ustozning gapirish mahorati (notiqligi) juda yaxshi bo'lishi kerakligini aytadi (chunki o'z fikrini chiroyli tushuntirib bera olmaydigan ustoz shogirdning ko'nglini va aqlini o'ziga qarata olmaydi).

Nima uchun bu alloma meni soham uchun muhim?

Xorijiy til yo‘nalishida o‘qiyotgan talaba sifatida aytishim mumkinki, Abu Nasr Farobiy shaxsi men uchun katta namuna. Birinchidan, uning shuncha tilni bilishi menga kuch beradi va til o‘rganish shunchaki lug‘at yodlash emas, balki yangi madaniyatlarni tushunish san’ati ekanligini anglatadi. Ikkinchidan, u til va mantiqni doim birga ko‘rgan, bu esa mening ham darslarga bo‘lgan qarashimni o‘zgartirdi. Endi men tilni nafaqat muloqot qilish, balki aqlini charxlaydigan o‘lmas bir kuch deb tushunaman. Kelajakda dars berganimda Farobiy bobomizning mana shu g‘oyalari men uchun yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq bo‘ladi degan umiddaman.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, Abu Nasr Farobiyning qoldirgan boyligi biz kabi bo‘lajak o‘qituvchilar uchun bitmas-tuganmas xazinadir. Uning til va mantiq uyg‘unligi haqidagi fikrlari bizga chet tillarini chuqurroq o‘rganishni va o‘rgatishni o‘rgatadi. Farobiyning hayot yo‘li har bir til o‘rganuvchi yosh uchun yuksak intellektual namuna bo‘lib qoladi dep o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.M.Xayrullayev. Abu Nasr Farobiy. – Toshkent: Fan, 1993.
- 2.Abu Nasr Farobiy. Fanlar tasnifi. – Toshkent: Fan, 2018.
- 3.Abu Nasr Farobiy. Kitob al-huruf (Harflar kitobi). – Toshkent: Sharq, 2012.
- 4.Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi